



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
12-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor*

*Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor*

*Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics*

*Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor*

*Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun*

*Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

*Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktab o'quvchilarining musiqiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	10
<i>Abilov Muslim Normuxammadovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati.....	14
<i>Bolqiyev Axmad</i>	
Jamiyat muhitida radikalizmning oldini olishga qaratilgan uzluksiz profilaktika tizimini yaratish .....	17
<i>Axmedova Iroda Shaxitbekovna</i>	
Inklyuziv ta'lim va gospital pedagogikani rivojlantirishda pedagogning tashkilotchilik madaniyati: nazariy va amaliy aspektlar .....	22
<i>Djabborov Ma'sud Bahriddinovich, Arolova Zarina Lochin qizi</i>	
Developing Sociolinguistic Competence in Intensive Teaching of Foreign Languages to Adults .....	28
<i>G. R. Tolibova</i>	
Языковая выразительность и художественный мир сказки "Муха-Цокотуха" .....	31
<i>Garifullina Alsu Robert qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda nasriy asarlarni o'qitish .....	35
<i>Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi</i>	
Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq faoliyatining yuzaga kelish xususiyatlari .....	38
<i>Ibroximova Fotimaxon Qobiljon qizi</i>	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarni fuqarolik hayotiga ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasining nazariy-metodologik tahlili (CTP dasturi misolida).....	42
<i>Ikmatullayev G'ayrat Zokirovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv motivatsiyasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish yo'llari .....	47
<i>Islamova Fotima Shamsiddinovna, Ismoilova Mohinur Faxriddin qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	52
<i>Mamanazar Djumayev</i>	
Turli vazn toifalaridagi dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish .....	61
<i>I. B. Matmuratova</i>	
Maktabgacha ta'limda xalqaro monitoring va baholash dasturlarining o'rni .....	65
<i>Mutalova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning intellektuallik koeffitsientini rivojlantirish va zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish .....	69
<i>Normamatova Sevinch Asror qizi</i>	
Ona tilidan o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlari.....	73
<i>Oloqova O'g'iljon Mamanazarovna</i>	
Oliy ta'limda adaptiv raqamli ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samaradorligini oshirish modeli ...	77
<i>Quchqarova Dilnovoz Shaymaxammad qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini autentik videomateriallar asosida rivojlantirish metodikasi .....	81
<i>Qurbonova Shalola Ilhomiddinovna</i>	
Jadid ma'rifatparvarlari pedagogik merosini tadqiq etishning zamonaviy ijtimoiy-pedagogik ahamiyati .....	84
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish .....	88
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Development of Students' Artistic Taste and Aesthetic Education as a Pedagogical Problem.....	91
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
O'smirlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari...	95
<i>Umarov Qobiljon</i>	



Ta'lim va tarbiya tizimida falsafiy yondashuvning pedagogik asoslari .....	98
<b>Umurov Sharif Rajabovich</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlariga oid mashg'ulotlar ustida ishlash .....	102
<b>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</b>	
Методические основы развития критического мышления обучающихся при изучении информационных технологий в условиях использования искусственного интеллекта .....	106
<b>Панжиева Назолат Норматовна</b>	
Динамика морфологической системы современного русского языка в условиях цифровизации .....	111
<b>Тураева Дилфуза Даминовна</b>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri .....	116
<b>Abdug'aniyeva Saodat Shuhrat qizi</b>	
Blended Learning Pedagogy in University EFL Writing Courses: Effects on Linguistic Accuracy and Learner Autonomy .....	120
<b>Inomidinova Dildorxon Ikramovna</b>	
O'smirlik davrida psixologik rivojlanishning muhim jihatlari va uning determinantlari.....	125
<b>M. S. Usmonova</b>	
The Relationship Between Grammar Knowledge and Writing Proficiency in EFL Learners .....	130
<b>Tahirova Shaxribonu</b>	
Особенности интерпретации юридических терминов в медиатекстах.....	139
<b>Хамидова Нигора Тулкуновна</b>	
Sportchilarning ijtimoiy moslashuvda murabbiy shaxsining roli .....	142
<b>Akbarova Maloxatoyimposhsha Saidto'ra qizi</b>	
Raqamli asrda yoshlarning media savodxonligi: ingliz tili og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda vlog yuritishning o'rni.....	146
<b>Akramova Yulduz Farxadovna, To'rayeva Maftuna Ravshanovna</b>	
Naqshbandiya ta'limotida psixospiritual paradigmalarining mohiyati .....	151
<b>Ashurova Gulru</b>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining hamkorlikdagi o'quv faoliyatini monitoring qilish mexanizmlari.....	154
<b>Bekmuratov Qadirbergen Quwanishbaevich</b>	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish.....	158
<b>Hotamov Lochinbek Uktam o'g'li</b>	
Improving Speaking Skills Through Authentic Videos Abstract .....	162
<b>Imamaliyeva Gulnoza Ulug'bekovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (pedagogik ritorika fani misolida).....	168
<b>Ismoilov Muhammadkarim Miraxmat o'g'li</b>	
Boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari (2-sinf rus tili darslari misolida) .....	170
<b>Jabborova Muslima Toxirovna</b>	
Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion mexanizmlari .....	175
<b>Karimova Barno Ergashevna</b>	
Raqamli ta'lim muhitida milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning asosiy tamoyillari .....	178
<b>Mamanazar Djumayev</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik-didaktik asoslari .....	187
<b>Maxmudova Gulchiroy G'anisherovna</b>	
Regbi mashg'ulotlari jarayonida talabalarining tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning differensial metodikasi .....	191
<b>Nematov Bahodirbek Baxtiyor o'g'li</b>	
Oila muhitida siblinglararo munosabatlarda psixologik manipulyatsiyaning namoyon bo'lish xususiyatlari...	195
<b>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</b>	

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashning hozirgi holati hamda innovatsion ta'lim texnologiyalari va tpack yondashuvi asosida pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish .....	199
<i>Nozimabonu Tojiboyeva</i>	
Agressiv xulqning ijtimoiy-psixologik determinantlari.....	204
<i>O'ktamova Shohida Odilbek qizi</i>	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik afzalliklari va xavflari.....	209
<i>Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li</i>	
Kichik tadbirkorlik subyektlarining hudud eksport salohiyatini oshirishga ta'sirining ekonometrik-statistik tadqiqi .....	214
<i>Boymatova Dildora Olim qizi, Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga tovush yo'nalishini aniqlashtirish metodikasi.....	218
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Bolalar folklori asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	222
<i>Jo'raboyeva Mushtariy Jamoldin qizi</i>	
O'zbekistonda maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy salohiyatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish .....	228
<i>Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna</i>	
Aqli zaif bolalarning so'zlashuv nutqiga qo'yiladigan talablar .....	233
<i>N. S. Mirbabayeva</i>	
Oliy ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiya berish metodlari .....	237
<i>Kamalov Rustam Azizovich</i>	
Bo'lajak logopedlarni tayyorlashda pedagogik mahoratini rivojlantirish xususiyatlari.....	241
<i>Shamsiyeva Sevara Yusupovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani rivojlantirishda loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	244
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	248
<i>Toshtemirova Sarvinoz Obidovna</i>	
Shaxsning ijtimoiy-psixologik yo'naltirilganligi guruhviy jipslikni belgilovchi individual omil sifatida .....	251
<i>Turayev Nurmuhammad Alibek Fozil o'g'li</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish (aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida).....	254
<i>G'ofurova Umida O'tkirbek qizi</i>	
The Role of Artificial Intelligence in Creating Interactive Methods in English.....	258
<i>Urozboyeva Mavluda Shukurlo qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	262
<i>Xalikova Xurshida Abdullayevna</i>	
Suv ekotizimlarida turlar sonining kamayishini eDNA metabarkoding orqali aniqlash va uning oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyati.....	267
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Izzatilloeva Umida Kamolovna</i>	
Asalarilar sonining kamayishi va global ekologik xavf.....	272
<i>Xalilova Nigora Ixtiyorovna, Sayfulloeva Dilnura Samandarovna</i>	
Enhancing A2 Learners' English Speaking Skills Through Short Stories With Structured Question-and-Answer Activities.....	276
<i>Xudoyberdiyeva G. Sh.</i>	
Кризис интеллигента и поиск смысла жизни в русской и мировой прозе XX Века: сравнительный анализ романов "Обломов" (И. Гончаров) и "Великий гатсби" (Ф. С. Фицджеральд) ..	280
<i>Аманова А. А., Саттарова М.</i>	
Понятие профессиональной ориентации и ее педагогическая сущность .....	285
<i>Каримова Наргиза Абдугафуровна</i>	
Talabalarning sun'iy intellektli ta'limiy vositalarni loyihalash kompetentligini shakllantirishning pedagogik shartlari .....	289
<i>Toxirov Feruz Jamoliddinovich</i>	



Maktab ta'lim tizimida STEAM yondashuvini joriy etishda loyiha boshqaruvining roli va samaradorligi ..... 293 <a href="#">Avalboyeva Mavluda Abdumalikovna</a>	293
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari ..... 300 <a href="#">Xodjayeva Matlyuba Rustamovna</a>	300
Biologiya darslarida interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish .... 304 <a href="#">Hayitov Abdurasul Eshdavlatovich, Anvarjonova Odinaxon Xayrullo qizi, Rahimova Fazilat Akrom qizi</a>	304



**Jabborova Muslima Toxirovna**  
University of Business and Science  
Til va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMMUNIKATIV UNIVERSAL O'QUV FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TEXNOLOGIK ASOSLARI (2-SINF RUS TILI DARSLARI MISOLIDA)

Orcid e-mail 0009-0003-5076-1115

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarining mazmuni, tarkibiy qismlari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek tilida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga rus tilini o'qitish jarayonida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, o'yin texnologiyalari, loyiha metodi va muammoli ta'lim elementlarining kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot madaniyati va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ universal o'quv faoliyatlari, boshlang'ich ta'lim, rus tili darslari, kommunikativ kompetentlik, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish, o'yin texnologiyalari, loyiha metodi, muammoli ta'lim.

**Abstract:** This article examines the theoretical and methodological foundations for the development of communicative universal learning activities in primary education. The study analyzes the essence, structure, and key characteristics of communicative universal learning activities, as well as the specific features of communicative development among primary school students. Particular attention is paid to the opportunities for developing communicative universal learning activities in Russian language lessons among primary school students studying in Uzbek-medium classes. The pedagogical potential of interactive teaching methods, cooperative learning technology, game-based learning technologies, the project method, and elements of problem-based learning in fostering students' communicative skills is explored. The findings indicate that the purposeful application of modern pedagogical technologies contributes significantly to the development of students' speech activity, communication culture, and collaborative skills.

**Key words:** communicative universal learning activities, primary education, Russian language lessons, communicative competence, pedagogical technologies, interactive methods, cooperative learning, game-based learning technologies, project method, problem-based learning.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются теоретические и методические основы развития коммуникативных универсальных учебных действий в процессе начального образования. В исследовании проанализированы сущность, структура коммуникативных универсальных учебных действий, а также особенности коммуникативного развития учащихся начальных классов. Особое внимание уделено возможностям формирования коммуникативных универсальных учебных действий у учащихся начальных классов с узбекским языком обучения на уроках русского языка. Рассмотрены педагогические возможности интерактивных методов, технологии обучения в сотрудничестве, игровых технологий, метода проектов и элементов проблемного обучения в развитии коммуникативных навыков учащихся. Результаты исследования показывают, что целенаправленное использование современных педагогических технологий способствует эффективному развитию речевой активности, культуры общения и навыков сотрудничества у младших школьников.

**Ключевые слова:** коммуникативные универсальные учебные действия, начальное образование, уроки русского языка, коммуникативная компетентность, педагогические технологии, интерактивные методы, обучение в сотрудничестве, игровые технологии, метод проектов, проблемное обучение.



## KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda mustaqil fikrlash, samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish hamda turli kommunikativ vaziyatlarda o'z nuqtayi nazarini asoslab bera olish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'lim bosqichida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang'ich maktab davrida o'quvchilarning muloqot madaniyati, nutqiy faolligi, tinglash va fikr almashish ko'nikmalari shakllanadi.

Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro ta'lim standartlariga mos kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa ta'lim jarayonida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ayniqsa, o'zbek tilida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga rus tilini o'qitish jarayonida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirish muhim metodik vazifa hisoblanadi. Chunki ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilardan nafaqat til birliklarini egallashni, balki nutqiy faoliyatning turli shakllarida faol ishtirok etishni, hamkorlikda ishlashni, muloqot jarayonida fikr almashishni ham talab qiladi.

Mazkur vazifalarni samarali hal etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, loyiha faoliyati, o'yin texnologiyalari hamda muammoli ta'lim elementlari o'quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Shu bois, rus tili darslarida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslarini tadqiq etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazkur jarayondagi imkoniyatlarini aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va til o'qitish metodikasi doirasida keng o'rganilgan. Mazkur muammoning nazariy asoslari, avvalo, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvlar bilan bevosita bog'liqdir <sup>[1]</sup>.

Kommunikativ faoliyatning psixologik-pedagogik mohiyatini yoritishda L.S. Vigotskiyning nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega <sup>[4]</sup>. Olimning fikricha, bolaning intellektual rivojlanishi ijtimoiy muloqot jarayonida shakllanadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi <sup>[4]</sup>.

Universal o'quv faoliyatlari nazariyasi A.G.Asmolov, G.V.Burmenskaya, I.A.Volodarskaya, O.A.Karabanova, N.G.Salmina va S.V.Molchanov tadqiqotlarida keng yoritilgan <sup>[1; 3]</sup>. Ushbu olimlar universal o'quv faoliyatlarini o'quvchining mustaqil bilim olish, ta'limiy hamkorlikka kirishish, o'z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish imkonini beruvchi umumta'limiy harakatlar tizimi sifatida izohlaydilar <sup>[1; 3]</sup>. Ayniqsa, kommunikativ universal o'quv faoliyatlari o'quvchilarning tinglash, savol berish, fikr bildirish, suhbatda ishtirok etish, kelishuvga erishish hamda hamkorlikda muammolarni hal etish ko'nikmalari bilan bog'liq holda talqin qilinadi <sup>[1]</sup>.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ rivojlanishi masalalari D.B.Elkonin, V.V. Davydov, Sh.A.Amonashvili, N.F.Vinogradova, M.R.Lvov kabi olimlarning ilmiy-metodik ishlarida ham muhim o'rin egallaydi <sup>[5; 10]</sup>. Ularning tadqiqotlarida boshlang'ich maktab yoshi bolaning nutqiy faolligi, o'quv motivatsiyasi va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalari shakllanishi uchun eng qulay davr ekani asoslab berilgan <sup>[5; 10]</sup>.

Rus tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa kommunikativ yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi <sup>[6; 7]</sup>. E.I. Passov, A.N.Shukin, N.D.Galskova, I.L.Bim kabi olimlar til ta'limida kommunikativ vaziyatlar, dialogik nutq, rolli o'yinlar, nutqiy mashqlar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning tilni amaliy egallashiga xizmat qilishini ko'rsatib berganlar <sup>[2; 6; 7; 9]</sup>.

O'zbekiston ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv, davlat ta'lim standartlari, rus tilini o'qitish metodikasi va boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalalari ham bir qator tadqiqotlarda o'rganilgan. Xususan, zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi, muloqotga kirisha olishi va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan yetarlicha asoslangan bo'lsa-da, aynan o'zbek tilida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga rus tili darslarida ushbu faoliyatlarni rivojlantirishning texnologik asoslari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Shu jihatdan mazkur maqola mavzusi ilmiy-metodik jihatdan dolzarb hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'limda kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik asoslarini aniqlash maqsadida nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv hamda kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish metodi qo'llanilib, kommunikativ universal o'quv faoliyatlarining mazmuni, tarkibiy qismlari va rivojlantirish mexanizmlari o'rganildi. Shuningdek, rus tilini o'qitish metodikasi bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda pedagogik kuzatish metodidan foydalanilib, 2-sinf rus tili darslarida o'quvchilarning muloqotga kirishish, savol berish, fikr bildirish, suhbatdoshni tinglash va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarining namoyon bo'lish jarayonlari tahlil qilindi. Kuzatish natijalari asosida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi.

Shuningdek, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari yordamida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, o'yin texnologiyalari, loyiha metodi hamda muammoli ta'lim elementlarining pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Olingan natijalar asosida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda tavsifiy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar rus tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kommunikativ universal o'quv faoliyatlari o'quvchilarning ta'lim jarayonida samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, o'z fikrini erkin va asosli ifodalash, suhbatdoshning fikrini tinglash hamda tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan universal harakatlar tizimini ifodalaydi. Ular o'quvchilarning shaxsiy, bilish va tartibga soluvchi faoliyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'limning muhim natijalaridan biri hisoblanadi <sup>[1; 3]</sup>. Kommunikativ universal o'quv faoliyatlari tarkibiga muloqotga kirishish, savol berish va javob qaytarish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, jamoada ishlash, kelishuvga erishish hamda nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish kabi ko'nikmalar kiradi.

Boshlang'ich sinf yoshi kommunikativ ko'nikmalarning faol shakllanish davri hisoblanadi <sup>[5; 10]</sup>. Mazkur davrda o'quvchilar tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishga ehtiyoj sezadilar, o'z fikrlarini ifodalashga intiladilar hamda ijtimoiy munosabatlar tizimiga faol kirib boradilar. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy faollik, taqlid qilish, hamkorlikda ishlash va yangi kommunikativ tajribalarni egallashga moyillik yuqori bo'ladi. Shu sababli aynan ushbu bosqich kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarni yaratadi <sup>[10]</sup>.

O'zbek tilida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga rus tilini o'qitish jarayoni kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish uchun keng imkoniyatlarga ega <sup>[6; 7]</sup>. Rus tili darslarida o'quvchilar yangi til vositalarini o'zlashtirish bilan birga turli nutqiy vaziyatlarda ishtirok etadilar, dialog va poliloglar quradilar, savol-javoblar tashkil etadilar hamda fikr almashadilar. Bunday faoliyatlar nafaqat til kompetensiyasini, balki kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, dars jarayonida o'quvchilarning faol nutqiy ishtirokini ta'minlash kommunikativ rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

2-sinf rus tili darslarida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirish o'quvchilarni turli nutqiy vaziyatlarga jalb etish orqali amalga oshiriladi. Kommunikativ vaziyatlar, rolli o'yinlar va hamkorlikdagi topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, ularning tinglash, fikr bildirish, savol berish va hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantiradi <sup>[6; 7]</sup>.

**“Знакомство” mavzusi.** Mazkur mavzuni o'rganishda o'quvchilar juftliklarda ishlaydilar va bir-birlari bilan tanishish dialoglarini tuzadilar. O'quvchilar ism-sharifini aytish, yoshini bildirish hamda yashash joyi haqida ma'lumot berish orqali savol-javob shaklidagi muloqotni tashkil etadilar. Ushbu topshiriq dialogik nutqni rivojlantirish, suhbatdoshni tinglash va muloqot davomida navbatni saqlash ko'nikmalarini shakllantiradi <sup>[7]</sup>.

**“Моя семья” mavzusi.** O'quvchilar kichik guruhlarda o'z oilalari haqida taqdimot tayyorlaydilar. Guruh a'zolari vazifalarni taqsimlaydilar, oila a'zolari haqida ma'lumot to'playdilar va sinf oldida taqdimot qiladilar. Natijada hamkorlikda ishlash, fikr almashish va jamoa oldida nutq so'zlash ko'nikmalari rivojlanadi <sup>[5]</sup>.

**“Моя школа” mavzusi.** O'quvchilarga maktab binosi tasvirlangan rasm beriladi. Ular juftliklarda maktabdagi xonalar va darslar haqida suhbat tuzadilar. Topshiriq davomida o'quvchilar savol berish va javob qaytarish orqali kommunikativ faoliyatga jalb qilinadilar. Bu esa axborot almashish va suhbatni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi <sup>[6]</sup>.



**“В классе” mavzusi.** O'qituvchi sinfdagi buyumlarni ko'rsatadi va o'quvchilardan ularning nomini, rangini hamda vazifasini aytishni so'raydi. Keyinchalik o'quvchilar bir-birlariga savollar beradilar. Ushbu faoliyat nutqiy faollikni oshiradi hamda predmetlarni tavsiflash ko'nikmalarini shakllantiradi [7].

**“Игрышки” mavzusi.** O'quvchilar o'z sevimli o'yinchoqlari haqida hikoya qiladilar. Sinf doshlar esa qo'shimcha savollar beradilar. Natijada monologik va dialogik nutq birgalikda rivojlanadi, o'quvchilar o'z fikrini izchil ifodalashga o'rganadilar [6].

**“В магазине” mavzusi.** Rolli o'yin shaklida tashkil etilgan mazkur topshiriqda ayrim o'quvchilar sotuvchi, boshqalari xaridor rolini bajaradilar. Ular mahsulotni so'rash, narxini aniqlash va xarid qilish bilan bog'liq dialoglarni amalga oshiradilar. Ushbu faoliyat real hayotga yaqin kommunikativ vaziyat yaratib, o'quvchilarning muloqot qilish tajribasini boyitadi [6; 7].

**“День рождения” mavzusi.** O'quvchilar tug'ilgan kunni tashkil etish bo'yicha guruhlarda ishlaydilar. Ular mehmonlarni taklif qilish, tabriklash va sovg'alar haqida suhbatlashadilar. Mazkur topshiriq kommunikativ hamkorlikni rivojlantirish bilan birga, nutqiy etiket formulalarini o'zlashtirishga yordam beradi [7].

**“Времена года” mavzusi.** Guruhlar yil fasllari haqida ma'lumot tayyorlaydilar va o'z fikrlarini sinfga taqdim etadilar. Taqdimot davomida boshqa o'quvchilar savollar beradilar va munozarada ishtirok etadilar. Bu esa kommunikativ universal o'quv faoliyatlarining axborot almashish, fikr bildirish va bahs-munozara olib borish komponentlarini rivojlantiradi [5].

Bizning fikrimizcha, 2-sinf rus tili darslarida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishda kommunikativ vaziyatlar, rolli o'yinlar, juftlik va guruhli ishlar hamda mini-loyiha topshiriqlaridan kompleks foydalanish eng samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar o'quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarining izchil rivojlanishini ta'minlaydi.

#### Kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning texnologik modeli

Bosqich	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati	Natija
<b>Motivatsion</b>	Kommunikativ vaziyat yaratadi	Muloqotga tayyorlanadi	Qiziqish hosil bo'ladi
<b>Faoliyatli</b>	Dialog va rolli o'yin tashkil qiladi	Muloqot qiladi	Nutqiy faollik rivojlanadi
<b>Hamkorlik</b>	Guruh ishini tashkil qiladi	Hamkorlik qiladi	Kommunikativ ko'nikma rivojlanadi
<b>Refleksiv</b>	Tahlil va baholashni tashkil qiladi	O'z faoliyatini baholaydi	Kommunikativ kompetentlik shakllanadi

Mazkur jadvalda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, umumlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi [1; 4; 6].

Kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi [8]. Xususan, interfaol metodlar o'quvchilarni faol muloqotga jalb qilish, mustaqil fikrlashga undash va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi [9]. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti”, “Sinkveyn” kabi metodlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi [5]. Ushbu texnologiyada o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash, vazifalarni taqsimlash, fikr almashish va umumiy qarorga kelish jarayonida kommunikativ tajribaga ega bo'ladilar. Hamkorlikdagi faoliyat ularda mas'uliyat, o'zaro hurmat va muloqot madaniyatini shakllantiradi.

O'yin texnologiyalari ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lib, kommunikativ faoliyatni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi [10]. Rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularda rus tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'yin jarayonida o'quvchilar tabiiy ravishda muloqotga kirishadilar va til birliklaridan amaliy foydalanishni o'rganadilar.

Loyiha metodi ham kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega [8]. Loyiha faoliyati davomida o'quvchilar axborot izlaydilar, uni tahlil qiladilar, guruh a'zolari bilan hamkorlik qiladilar va yakuniy natijani taqdim etadilar. Bu esa ularda muloqot qilish, fikr bildirish, bahs-munozarada qatnashish va jamoaviy faoliyat olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish ham kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi [5; 6]. Muammoli vaziyatlar o'quvchilarni fikrlashga, o'z qarashlarini asoslashga va turli yechimlarni muhokama qilishga undaydi. Natijada o'quvchilar o'z fikrlarini dalillar asosida ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash va muloqot madaniyatiga rioya qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Shunday qilib, rus tili darslarida interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish, o'yin texnologiyalari, loyiha metodi va muammoli ta'lim elementlaridan maqsadli foydalanish o'zbek tilida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ta'lim jarayonining natijadorligini oshiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ universal o'quv faoliyatlari boshlang'ich ta'limning muhim natijalaridan biri bo'lib, o'quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot madaniyati, hamkorlikda ishlash va o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek tilida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun rus tilini o'rganish jarayonida kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish tilni amaliy egallashning muhim sharti hisoblanadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, o'yin texnologiyalari, loyiha metodi hamda muammoli ta'lim elementlari o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, muloqotga kirishish ehtiyojini kuchaytiradi va kommunikativ tajribasini boyitadi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ta'lim subyektiga aylantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, rus tili darslarida kommunikativ yo'naltirilgan topshiriqlar va hamkorlikka asoslangan faoliyat turlarini tizimli tashkil etish o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasini, balki kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, rus tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli va tizimli foydalanish o'zbek tilida ta'lim oluvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ universal o'quv faoliyatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асмолов А.Г. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли. - М.: Просвещение, 2011. - 152 с.
2. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. – М.: Просвещение, 2010. - 278 с.
3. Бурменская Г.В., Володарская И.А., Карабанова О.А. Формирование универсальных учебных действий в основной школе. - М.: Просвещение, 2011. - 159 с.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 2019. - 432 с.
5. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: ИНТОР, 1996. - 544 с.
6. Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. - М.: Академия, 2018. - 336 с.
7. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. - М.: Просвещение, 1991. - 223 с.
8. Шамова Т.И. Активизация учения школьников. - М.: Педагогика, 2008. - 208 с.
9. Шуклин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. - М.: Флинта, 2017. - 312 с.
10. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. - М.: Академия, 2007. - 384 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.